

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 552 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlantrish yo'llari.....	11
Mirjamilova Hulkar Nurali qizi , assisstent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	15
Alimov Murodkosim Achilovich , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili	20
Umarov Faxriddin Umar o'g'li , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati	26
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi	31
Abduvakil Alimov Komil o'g'li , tayanch doktorant	
Ta'lim turizmning nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
Maxmudova Nodira O'ktamovna , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	43
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari	46
Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi	51
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlantrishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari	57
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish	62
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantrish strategiyasi	73
Usmonov Botir , magistr	
Hududlarda investitsion faoliyikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish	78
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahibili.....	82
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds	87
Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies	92
Shakhzod Saydullaev , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishing mohiyati va zarurligi	101
Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich , i. f. d. (DSc); Eshqulova Nasiba Normo'minovna , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lim kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
Eldor Uskanov , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish	114
Maxmudov Nosir Maxmudovich , professor; Elmurodov Faxriddin Farxodovich , magistratura tinglovchisi	
Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari	120
Ergashev Otamurod Toshtemirovich , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar.....	125
Ermatov Musojalil Komilovich , kafedrasi dotsenti v. b.; Abdunazarov Oybek Abdumutlibovich , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach.....	132
Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
Akobirova Nodira Najmiddin qizi , assisstent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
Alimova Guzal Alisherovna , PhD in economics, docent	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ



Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari	146
Jo'rayeva Sevara Zakirovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	152
Kamilova Iroda Xusniddinovna , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability.....	156
Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari.....	163
Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality	
Education Management (TQEM) concept	175
Otakulov Makhmadjon , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari.....	181
Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida.....	185
Sadikova Ra'no Abdullayevna , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasingin moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish	188
Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni	191
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li , dekan o'rinososari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari	203
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich , dotsent; Adilbekov Allayar Anvarbekovich , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni.....	206
Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения	
эффективности производства на предприятиях.....	212
Алиева Надирахон Абдумаликовна , PhD. доц.; Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
Z. G. Allaberganova , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
Asatullayev Xurshid Sunatullayevich , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
Axmedova Yulduz Sunatullayevna , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari	232
Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna , kafedra dotsenti	
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish	236
Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihamarini moliyalashtirishning	
ekonometrik modellasshtirish ko'rsatkichlari.....	242
Berdiyev Akram O'ktamovich , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi	253
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari	258
Botirov Erkinjon Xayitovich , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali	
investitsion salohiyatni oshirish	263
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihamarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	269
Jubanova Bayramgul Aymuratovna , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....	272
Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvoqiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan	
moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....	278
Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda	
asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari	284
Qurbanova Shaxrinoz , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar	288
Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari	292
Mamirjon Jalollidinov , mustaqil izlanuvchi	



Финансирование акционерных общества через рынок капитала	297
Муминов Шохжакон Суюнович , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и	
страховой деятельности риски на рынке Узбекистана	302
Муяддинов Махмуд Жалелович , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....	307
Назарова Гузал Баходировна	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....	312
Nozima Abdullayeva , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga	
ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	316
Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на	
логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....	326
Тажимуратов Умид Рузматович, Баҳриев Иброҳим Исометдинович , кандидат медицинских наук,	
доцент; Жуманиёзов Эркин Худойберганович , кандидат медицинских наук, доцент; Тажимуратов Рузмат	
Отажанович , кандидат медицинских наук, Тажимуратов Абдусами Умид угли , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalar tahlili	333
Temirov Abdulaziz Alimjanovich , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....	339
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....	345
Tosheva Ziroat Aliqul qizi	
Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari	349
To'rayeva Nafisa Odilovna , mustaqil izlanuvchi	
O достиженнях Узбекистана в реализации национальных целей	
и задач устойчивого развития.....	355
Турсун Мухитович Ахмедов , и. ф. д., проф.; Гавхар Рустамовна Хидирова , докторант, и. ф. ф. д., доц.	
Влияние корпоративного управления в зеленой экономике	359
Уринов Бобур Насиллоевич , заведующий кафедрой	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari.....	374
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning	
ayrim fundamental masalalari.....	382
Xayriddinov Sh. B. , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari	385
Xolov Nabijon Qaxramonovich , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari	391
Xusanov Otabek Nishonovich , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari.....	396
Elbusinova Umida Xamidullayevna , kafedra dotsenti	
Особенности методики проведения аудита затрат на производство.....	401
Хилола Икрамова Ровшан кизи , базовый докторант	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni	407
Bekdavlat Aliyev	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	412
Oktamova Nozima Narzulla qizi , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari.....	416
Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiyl va	
Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalardagi umumiylilik va xususiylik.....	420
Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для	
содействия устойчивому экономическому росту в	
Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития	431
Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari	440
Xolmamatov Farhodjon Kubayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari	446
Bobirjon Aktamov , mustaqil tadqiqotchi	



Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
Daromadlarni qayta taqsimlashda "tashabbusli byudjet" tizimini qo'llashning zamonaviy modellari va ulardan samarali foydalanish yo'llari.....	464
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich , dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth in Uzbekistan.....	472
Tulkin Imomqulov , PhD Associate Professor	
O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari.....	478
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
O'zbekistonda kichik tadbirdorlik subyektlari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining statistik tahlili.....	483
Saodat Toshaliyeva Toxirovna , PhD	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....	490
Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович , DSc; Одилова Дилноза Барнаевна , PhD	
Tijorat banklari kreditlari hajimining barqaror o'sishini ta'minlash	497
J. Y. Isakov , i.f.d., prof.	
The Securities Transactions of Commercial Banks	502
Iskandar Sulaymonov , assitant teacher	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli	507
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi: nazariya, rivojlanish, taklif.....	511
Isroilov Bohodir Ibragimovich , i. f. d., professor; Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li , PhD	
Yangi O'zbekiston jamiyat hayotining joni va ruhi ma'nnaviyatdir.....	516
Davletova Muxabbat Narimanovna , mustaqil izlanuvchi	
Moddiy-tehnik resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligi	519
Halimova Dilora Olimboyevna , mustaqil izlanuvchi	
Хлопково-текстильная промышленность государства.....	523
Халиков Талибжон Луптуллаевич , ассистент кафедры	
Directions of Sustainable Development of Tourism: A Case of top Developed Countries	527
Khusniddin Egamnazarov	
Yevropa Ittifoqining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....	534
Abduraxmonov Farxod Abdufarmonovich , siyosiy fanlar doktori (DSc.)	
Xorijiy investitsiyalar oqimini obligatsiyalar orqali oshirish istiqbollari	542
Xojiyev Jaxongir Dushaboyevich , kafedra dotsenti v.b.	
Tarmoq va sohalarning ehtiyojiga ko'ra aholi bandligini oshirish imkoniyatlari.....	547
Xayitov Abdimannon Buxarovich , iqtisod fanlari nomzodi, professor v.b.	



TARMOQ VA SOHALARNING EHTIYOJIGA KO'RA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI



Xayitov Abdimannon Buxarovich

Iqtisod fanlari nomzodi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi bandligini oshirish masalalari ko'rib chiqildi. Mualliflar bandlikka ko'maklashishning asosiy yo'nalishlari va mamlakatda mehnat bozorini izchil rivojlantirish bo'yicha takliflarni taqdim etadilar.

Kalit so'zlar: aholi, yangi ish o'rnlari, bandlik, mehnat, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik.

Abstract: In this paper have been investigated issues of increasing population employment under conditions of modernization country economy. By authors presented the main directions of promoting employment and proposals for consistently developing the labor market in the country.

Key words: population, new jobs, employment, labour, small business, private entrepreneurship.

Аннотация: В данной статье были исследованы вопросы повышения занятости населения в условиях модернизации экономики страны. Авторами представлены основные направления содействия занятости и предложения по последовательному развитию рынка труда в стране.

Ключевые слова: население, новые рабочие места, занятость, труд, малый бизнес, частное предпринимательство.

KIRISH

Dunyo mamlakatlarida amalga oshirilayotgan islohotlarda insonning jamiyatda munosib o'rnini egallashiga asos va turtki bo'luvchi konseptual asoslarning yaratilishi mehnat bozori ehtiyojiga ko'ra kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni taqoza etadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan 2022-yilda e'lon qilingan hisobot natijalari "2021-yilda jahon yoshlari ishsizligi darajasi 15,6 foizni tashkil etgan, bu kattalar darajasidan uch baravar ko'proqdir. Dunyo bo'yicha 75 millionga yaqin yoshlar ishsiz"¹. Bugungi kunda jahon miqyosida ta'lim muassasalarida tayyorlangan kadrlarni nafaqat milliy, balki jahon mehnat bozorida o'z egallagan kasbi bo'yicha ish o'rniga ega bo'lishi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Jahon miqyosida mehnat bozorining tez o'zgaruvchan sharoitida ta'lim muassasalari bitiruvchilari ish bilan bandligi darajasini oshirish, ularni o'z mutaxassisligi bo'yicha mehnat bozoriga erkin kirish imkoniyatlarini oshirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bu borada ta'lim muassasalari faoliyati mehnat bozori ehtiyojlariga qaratilishi va shunga koordinatsiya qilingan holda kadrlar tayyorlash tarkibini takomillashtirish ishsizlar orasida bitiruvchilar ulushini kamaytirish, bitiruvchilarning ishga joylashishida qiyinchiliklarni bartaraf etish kabi masalalarga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda mehnat bozori ehtiyojlarini tarmoq va sohalarning imkoniyatlari ko'ra aniqlash va shunga muvofiq ish o'rnlarini yaratishdagi nomuvofiq chora-tadbirlar pirovardida kadrlar tayyorlash tizimidagi nomutonosibliklarning yuzaga kelishi, oliy ma'lumotli va kasbiy tayyorlangan shaxslar orasidagi ishsizlar va mehnat migrantlari, kambag'allar hamda tegishli "daftarlar"ga kirgan yoshlar salmog'ida ta'lim muassasalari bitiruvchilari ulushining yuqoriligi hozirgi kundagi yechimini kutayotgan dolzarb kompleks muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Mamlakatimizning har tomonlama va jadal rivojanishi uchun zarur, "jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari hamda O'zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar bilan ta'minlash aniq maqsadlari belgilab berilgan"². Bu borada

1 Global Employment Trends for Youth 2022: Investing in transforming futures for young people. Geneva: ILO, 2022. URL: <https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentyabr PF-5545-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.



kadrlar salohiyatini oshirish va tayyorlash sifatini oshirish, kadrlar salohiyatidan foydalanish jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamонавиу usullarni joriy etish, ilmiy muassasalarda ilmiy-tadqiqot ishlari hamda korxona va tashkilotlarda natijadorlikni oshirish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holdan, mehnat bozori ehtiyoji asosida kadrlar tayyorlash tarkibini takomillashtirish zarurati hamda mazkur sohaning respublikamiz olimlari tomonidan alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha to'liq o'rganilmaganligi tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbigini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabralagi yildagi PF-158-sonli Farmoni "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida, 2022-yilda 12-avgustdag'i PQ-350-sonli "Zamonaviy bilim va kasb-hunar egallash imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 11-fevral-dagi PF-6168-sonli "Davlat xizmatchilarini va mutaxassislarni xorjida tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, ushbu ushbu maqola tadqiqoti uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ish bilan bandlik tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim A. I. Rofe ushbu tushunchaga o'z munosabatini bildirib, "Ish bilan bandlik – bu mamlakat aholisining iqtisodiy faol qismidagi kishilar uchun ishlarning mayjudligi, ya'ni amaldagi qonunchilikka zid bo'limgan, daromadli mashg'ulot bilan bilan band bo'lismidir"^[1], – deb ta'rif bergan.

Shuningdek, yetuk iqtisodchi olimlardan I. M. Aliyev, N. A. Gorelov, L. O. Ilinalar ushbu tushunchaga: "Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hamda mehnatdan daromad (ish haqi) keltiruvchi ijtimoiy foydali mehnat sifatida namoyon bo'lishi mumkin"^[2], – deb izohlagan.

Mazkur ta'riflardan farqli o'laroq, bizning fikrimizcha, ish bilan bandlik munosabatlari – mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir. Aholining ish bilan bandligi mehnat unumdorligining oshishiga va o'z navbatida, milliy boylikning ham o'sishiga xizmat qiladi, ayni paytda, ishsizlikning salbiy oqibatilari shundaki, u nafaqat ishlab chiqarishning pasayishiga, balki pirovardida qashshoqlikning boshlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Amerikalik iqtisodchi olim Artur Ouken ishsizlikning tabiiy darajadan ortishi bilan yalpi milliy mahsulot hajmining ortda qolishi o'tasidagi nisbatni matematik tarzda quyidagicha ifodalalaydi: "...agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 1 foizga yuqori bo'lsa, yalpi milliy mahsulot hajmi 2,5 foiz kamayadi yoki 2,5 foiz yalpi milliy mahsulot yo'qoladi".

Demak, mos ravishda ularning nisbati 1:2,5 ga teng. Ushbu nisbat iqtisodiy nazariyada Ouken qonuni deb nom oldi. Shu nisbatga asoslanib, yo'qotilgan yalpi milliy mahsulotning mutlaq qiymatini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, ishsizlikning tabiiy darajasi – bu "normal" davrdagi me'yoriy inflyatsiya va barqaror o'sish sur'atlari bilan ifodalangan darajadir. Shuning uchun ishsizlikning tabiiy darajasining ta'rifi anchagina murakkab ish, chunki bu ko'rsatkichni hisoblab chiqish uchun "normal ishlovchi iqtisodiyot" modelini yaratish kerak bo'ladi.

Ishsizlik tushunchasiga aniqlik kiritishda ham turli qarashlar mavjud. Rossiyalik iqtisodchi olimlar N. V. Lyasnikov, M. N. Dudin, Y. V. Lyasnikovlar ushbu tushunchani "Ishsizlik – bu shunday bir ijtimoiy-iqtisodiy hodisaki, unda faol, mehnatga layoqatli aholining bir qismi o'zi bajarishi mumkin bo'lgan ishni topa olmaslik holatidir"^[3], – deb ta'riflasalar, boshqa bir iqtisodchi olimlardan I. M. Aliyev, N. A. Gorelov, L. O. Ilinalar esa, "Ishsizlik – iqtisodiyotdagi shunday bir hodisaki, unda iqtisodiy faol aholining bir qismini ishsizlar tashkil etadi"^[4], – deb ifodalaydilar.

Fikrimizcha, ishsizlik – bu ishlashni istaydigan mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo'limgan miqdoridir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, globalashuv sharoitida, gap tabiiy ishsizlik to'g'risida emas, balki uning ijtimoiy maqbul darajasi, ya'ni kadrlar qo'nimsizligi va ish izlash davomiyligini, shuningdek, ishchi kuchining demografik tarkibi va mehnat bozoridagi tanglik darajasini (ishsizlikning bo'sh ish joylari miqdoriga nisbati) va ijtimoiy tanglikni ham hisobga oladigan darajasi to'g'risida borishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida aholi ish bandligini shakllantirishning boshqa tamoyillari ham amal qiladi. Bunda davlat mavjud mehnat resurslaridan ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish borasidagi monopoliyaga har qanday da'vogarliklardan voz kechadi. Shu asosda boshqa tamoyil – erkin tanlab olingan bandlik tamoyili, ya'ni qonuniy daromadlar manbaiga ega bo'lgan mehnatga layoqatli aholining ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'imaslik huquqi yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining mehnat qilish qobiliyati (ishchi kuchi)ni tasarruf etish huquqi faqat uning egasiga, ya'ni xodimning o'ziga tegishli bo'lib, uni hech kim mehnat qilishga majbur qilishga haqli emas (qonun hujjalarda nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno).

Ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim mezoni – ish bilan bandlikka bo'lgan munosabatdir. Ish bilan bandlik muammosi ijtimoiy muammo. Shunday ekan, eng yuqori darajadagi aholining demografik jihatlari



va undan samarali foydalanish hamda jvamiyat rivoji uchun yo'naltilganligi ish bilan bandlik kompleks ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi. Aholining ish bilavn bandligi muammolarining ijtimoiyligi uning, eng avvalo, inson, uning manfaatlari va mehnat sohasidagi ehtiyojlariga qaratilganligi bilan belgilanadi. Qanchalik darajada insonning ijtimoiylashuv darajasi yuqori bo'lsa, shunchalik darajada inson kapitalining sifat darajasi o'zgarib boradi.

Akademik Q. Abdurahmonov tomonidan "... ish bilan bandlikning eng kam deganda to'rt ijtimoiy jihatini hisobga olish lozimligini, ish bilan bandlikning insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – mehnat huquqi bilan mustahkam bog'liqligi, turmush darajasi va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan ish bilan bandlik mehnat faolligini oshirish, mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning eng muhim kafolati, har kimning va, umuman, jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori unumli mehnatning yangi omilini shakllantirish, aynan mehnat faoliyati insonni o'zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko'paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag'batlantiradi"³, – deb ta'kidlanadi.

Darhaqiqat, ushbu yo'nalishlar milliy iqtisodiyotdagagi moliyaviy, moddiy va mehnat resurslarini qayta guruhlarga ajratish, fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish, turmush sifati darajasini oshirish yo'llarini belgilab beradi. Bu g'oyat muhim muammolaridan biri ekanligi, COVID-19 Global Pandemiya sharoitida ish bilan bandlik muammolarini hal qilish, binobarin, muallif qayd etgandek, jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori unumli mehnatning yangi omilini shakllantirish aynan butun iqtisodiyotni isloh qilishning muvaffaqiyati, mazkur muammoni e'tirof qilish va hal etishga ma'lum darajada bog'liqligining guvohi bo'ldik. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyotining asosi aholi tarkibidan hududlar miqiyosida aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan birdir.

Demografik rivojlanish ijtimoiy rivojlanishning bir qismi bo'lganligi bois, uni davlat tomonidan tartibga solish siyosat darajasiga ko'tarilgan. Unga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiq. Masalan, Q. X. Abdurahmonov va N. K. Zokirovalar demografik rivojlanishning davlat tomonidan tartibga solinishiga quyidagicha ta'rif berishgan: "Demografik siyosat davlat organlari va ijtimoiy institutlarning aholining takror barpo qilinishi jarayonlarini tartibga solish sohasidagi aniq maqsadni ko'zlagan faoliyatidir"⁴. Rossiyalik taniqli demograf olimlardan V. G. Glushkovoy va Y. A. Simaginalar ta'kidlashicha, "Demografik siyosat – bu demografik natijalarni aniqlashtirishga erishish va aholining tabiiy harakatiga ta'sir etish uchun davlat tomonidan qo'llaniladigan chora tadbirlar tizimidir"⁵.

P. I. Kosov va A. B. Berendeyevlar tomonidan ancha aniq ta'rif ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra "Demografik siyosat – ijtimoiy va oilaviy siyosat bilan chambarchas bog'liq. Ularni bazida farqlashga to'g'ri keladi. Ijtimoiy siyosat hayot sharoitlarini boshqarish va ehtiyojmandlarga yordam berish masalalarini o'z maqsadlari ichiga oladi. Oilaviy siyosat esa davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining oilalarning tashkil etilishi, oiladagi turmush tarzi, jamiyat rivojlanishining uzoq tarixiy yo'li yo'qolib ketmasligi, oilaning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ijtimoiy institut sifatida oilalarning mustahkamligiga yo'naltirilgan faolyatidir"⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizning fikrimizcha, mualliflar tomonidan demografik siyosatning ijtioiy va oila siyosatini chambarchas bozliqligini ular yashagan davr va mamlakatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta'rif bergen bo'lishi mumkin. Mualliflar asoslaganidek, oiladagi turmush tarzi, jamiyat rivojlanishining uzoq tarixiy yo'li, oilaning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ijtimoiy institut sifatida oilalarning mustahkamligiga yo'naltirilgan harakatlarning borligi bu haqiqat. Lekin holatda mualliflar tavsiya etayotgan ilmiy chimini bera olmadidi. mulohazada oilaning mustahkamliga tayanch bo'ladijan asosni ko'rsata olmaganlar. Bizda ham oila bilan bog'liq barcha institutlar mavjud faoliyat olib borayotgandi. Olib borilayotgan barcha chora-tadbirlarning samarasini keyingi yillarda o'z yechimini topmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020-yil 12-fevraldagi selektr yig'i-lishida "...xususan, mahallalarda 18 mingdan ortiq xodim faoliyat ko'rsatib kelayotgan bo'lsada, ularning ishi samarali tashkil etilmagan. Oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarning oldini olish bo'yicha tizim yo'lda qo'yilmagan. Oqibatda ayrim mahallalarda notinch oilalar, huquqbuzarliklar ko'paygan. Shuningdek, xotin-qizlar va voyaga yetmaganlar orasida o'z joniga qasd qilish holatlari uchrayotgani juda achnarli" ekanligini qayd etib o'tdi. Darhaqiqat, oilani uning ijtimoiylashuviga bevosita turtki bo'ladijan mahalla bilan chambarchsligini ta'minlaydigan Mahalla va oila masalalari vazirligi tashkil etish taklifini bildirdi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lom-

³ Q. Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zR FA «FAN» nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 257-b.

⁴ Abdurahmonov K.X va boshqalar. Demografiya. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2014. – 334-b.

⁵ В. Г. Глушкивой, Ю. А. Симагина, Демография: учеб. пособие – М.: КРОНУС, 2013 – с.206

⁶ П. И. Косов, А. Б. Брендеева, Основы демографии: учеб. пособие – 2-изд. – М.: ИНФРА-М. 2013 – с.213-214



lashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli Farmoniga muvofiq 2020-yil 19-fevralda O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi.

Aholini ish bilan bandligini oshirishning demografik jihatlari xususan mazkur qarorda "... fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlash, aholini ish bilan ta'minlash borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida fuqarolar yig'inlariga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijtimoiy dasturlar, shu jumladan, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi, "Hunarmandchilikni rivojlantirish dasturi", "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi asosida imtiyozli kreditlar ajratish to'g'risidagi takliflari"i kiritilganligi mamlakatda iqtisodiy o'sish tendensiyalari va istiqbollarini, mamlakat va uning hududlarining investitsion jozibadorligini oshirishga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatishga xizmat qiladigan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatiga beriladigan baholashning muhim ko'rsatkichlari bandlik ko'rsatkichi ekanligi, iqtisodiyotni sifatlari inson resurslari bilan ta'minlash, xususan, oilalarda shakllanishi va yo'naltirilishini e'tiborga olsak, bu ko'p jihatdan hozirgi demografik vaziyatning barqarorlashuviga olib keladi.

Demografik vaziyatning barqarorlashuvi, bandlikning ushbu xususiyatlarini tahlil qilishning dolzarbliги aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlarning doimiy dinamikasi bilan belgilanadi

Demografik jihatlar, aholining ko'payishi va tabiiy harakatlanishning zamonaviy muammolari, aholi siyosatining tahlili, xususan, hududlardagi demografik vaziyat, shuningdek, inson kapitalining rivojlanishini o'rganishda tahlil qilinadi hududlarida aholining hayot darajasi va sifati demografik muammolar va turmush darajasi tahlil qilinadi). Shu bilan birga, ish bilan band aholining demografik xususiyatlarini tahlil qilishga yetarli darajada e'tibor berilmayapti (bandlarning yosh tarkibini o'zgartirishning mintaqaviy jihatlari bilan birga) qator muammolarni yuzaga keltirayotgagligi hech kimga sir emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yer yuzida 7,5 mlrddan ortiq aholi istiqomat qiladi. 2019-yil dekabr oyida Xitoya aniqlangan COVID-19 koronavirus (tojli virus) 186 dan ortiq mamlakatlar aholisining mehnat va kundalik faoliyatiga bevosita va bilvosita o'z ta'sirini ko'rsatdi. Pandemiya sharoitini mamlakatlardagi iqtisodiyot tarmoqlarining bir maromda yoki barqaror ishslashiga imkon bermaydigan vaznsizlik, yanada aniqrog'i, inson hayoti va borlig'ining asosi nafas olish asosi kislorod yetishmaydigan davrga tenglashtirsa bo'ladi.

Pandemiya sharoiti butun dunyo afkor ommasi oldida muammolarni bartaraf etishda insoniyatning ojizligi, zaifligi sezilib qoldi. Aniqrog'i "g'alvir suvdan ko'tarildi".

Fan-texnika taraqqiyoti tomonidan erishilgan natijalar bu bizniki, butun dunyo aholisiniki. Xo'sh, unda muammo qayerda? Nima uchun insoniyat ko'zga ko'rinnmaydigan virusni bartiaraf etishda ojiz qoldi? Insoniyatning ojizligi nimada va qayerda? Insoniyat paydo bo'lgan davrdan toki shu kungacha qayerda xatoliklarga yo'il qo'yildi? Kim bilan va nima bilan hisoblashmadik?

Yer – insoniyat uchun Yagona makon. Buni 200 dan ortiq mamlakatlar va ularning geografik joylashuvidanagi qulaylik yoki noqulaylik, bir necha din, 1000 dan ortiq millat va elat, turli xil urf-odat va qadriyatdar, mintalitet va boshqa ko'rsatkichlar orqali yagona makonda hayot kechirayotganimizni asoslash mumkin.

Inson – jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Mamlakatda nimaiki qilinmasin, hammasi inson uchun, uning hayotiy manfaatlari, farovonligi oilasi uchun qilinadi. Shuning uchun pandemiya sharoitida ish bilan bandlik masalasiga nafaqat ijtimoiy mehnat unumdorligining o'sishi yoki pasayishi, milliy boylikning oshishi yoki kamayishi nuqtayi nazaridan, balki birinchi galda, har qanday boylikning yaratuvchisi hisoblangan insonning o'zi nuqtayi nazaridan qarash lozim. Insonlar aksariyat hollarda ijtimoiy faol iqtisodiy subyektlardir. Ular uchun ishning yo'qotilishi nafaqat daromadlarning qisqarishini, balki o'zini jamiyat uchun zarur deb his qila olmaslikni, ijtimoiy yo'nalishning yo'qotilishini, ish orqali o'zini namoyon etish imkoniyatidan mahrum bo'lishni anglatadi. Ishini yo'qotgan, lekin ishslashni, mablag'lar ishlab topishni va ushbu mablag'lar hisobidan o'z oilasini boqishni, farzandlarini o'qitishni xohlaydigan inson ishsizlik oqibatida pirovardida kasbiy va intellektual nuqtayi nazaridan tanazzulga uchrashishi e'tibordan xoli emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, yuqorida qayd etilgan tahlillar va fikr-mulohazalar natijasida hosil bo'lgan quyidagi xulosa-larni beramiz:

- jamiyatda aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammolarini bartaraf etishda nafaqat davlat, balki bozor munosabatlari sharoitida ish beruvchilar – korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, kompaniyalar, konsernlar va boshqa ishlab chiqarish tuzilmalari ham ma'suldirlar;



- ma'lumki yangi ish o'rirlari, asosan, korxonalarda tashkil etiladi, demak, korxonalar birinchi navbatda aholining ish bilan bandligini oshirishning tashabbuskorlari bo'lishlari lozim;
- korxonalar mazkur muammoni muvaffaqiyatli tarzda hal etgan holda insonlarni ishsizlikka uchrashdan himoyalaydi hamda jamiyatda tinchlik, to'kin-sochinlik va farovonlikning saqlanishiga ko'maklashadi;
- aholining bilan bandligini ta'minlash asosiy masala ekanligini e'tiborga olgan holda, tijorat banklariga va davlat jamg'armalari tomonidan beriladigan imtiyozli (kam foizli) kreditlar berishda kasanachilik, asosan ish o'rirlari yaratgan korxonalarga yoki firmalarga vakolat berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Экономика труда: учебник / А. И. Рофе.-2-е. – М.: КНОРУС, 2011.- с. 159.
- Экономика труда: учебник /И. М. Алиев, Н. А. Горелов, Л. О. Ильина. – М.: Издательство Юрайт, 2012 – с. 123.
- Экономика и социология труда: учебное пособие /Н. В. Лясников, М. Н. Дудин, Ю. В. Лясников. – М.: КНОРУС, 2012. с. 79.
- Экономика труда: учебник /И.М.Алиев, Н.А.Горелов, Л.О.Ильина. – М.:Издательство Юрайт, 2012. с. 123.
- Q.Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zR FA "FAN" nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sон Farmoni.
- 2020-yil 19-fevralda O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikai Prezidentining Qarori.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

